

Abduraxmonova Nilufarxon Ibrohim qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Buyuk Britaniyaning mustamlakachilik siyosatining vujudga kelishi, uning shakllanish bosqichlari, asosiy yo'nalishlari va maqsadlari hamda Osiyo va Afrikadagi mamlakatlaridagi faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, mustamlakachilik siyosatining ijobiy va salbiy oqibatlari, milliy ozodlik harakatlarining yuzaga kelishi va Britaniya imperiyasining zaiflashishiga ta'sir etgan omillar ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi*

Kalit so'zlar: *Mustamlakachilik, Britaniya imperiyasi, koloniyalar, Ost-Indiya kompaniyasi, milliy ozodlik harakati, mustamlaka, Hindiston, imperializm, Buyuk Britaniya.*

Abstract. *This article analyzes the emergence of Great Britain's colonial policy, the stages of its formation, its main directions and goals, and its activities in countries in Asia and Africa. In addition, the positive and negative consequences of colonial policy, the emergence of national liberation movements, and the factors that influenced the weakening of the British Empire are analyzed based on scientific sources.*

Keywords: *Colonialism, British Empire, colonies, East India Company, national liberation movement, colonialism, India, imperialism, Great Britain.*

Аннотация. *В данной статье анализируется возникновение колониальной политики Великобритании, этапы её формирования, основные направления и цели, а также её деятельность в странах Азии и Африки. Кроме того, на основе научных источников анализируются позитивные и негативные последствия колониальной политики, возникновение национально-освободительных движений и факторы, повлиявшие на ослабление Британской империи.*

Ключевые слова: *колониализм, Британская империя, колонии, Ост-Индская компания, национально-освободительно движение, колониализм, Индия, империализм, Великобритания.*

Kirish. Buyuk Britaniya tarixda eng yirik va eng ko'p mustamlakalarga ega davlatlardan biri hisoblanadi. XVII–XX asrlar davomida u dunyoning turli hududlarida, jumladan Osiyo, Afrika, Amerika va Avstraliyada keng mustamlaka hududlarini egallagan va “Britaniya imperiyasi”ni shakllantirgan. Bu jarayon jahon siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Mustamlakachilik siyosati asosan iqtisodiy manfaatlarga asoslangan bo'lib, Buyuk Britaniya sanoatlashuvi uchun xomashyo manbalari va tayyor mahsulotlarini sotish uchun bozor vazifasini ham o'tagan. Shuning uchun, Buyuk Britaniya mustamlakalarini ya'ni bozorlarni kengaytirishga intilgan. Ayniqsa Hindiston Britaniya imperiyasi uchun eng muhim mustamlakalardan biri bo'lib, u yerda Ost-Indiya kompaniyasi orqali siyosiy va iqtisodiy nazorat o'rnatilgan.

Asosiy qism. Britaniya mustamlakachilik siyosatining shakllanishi XV–XVI asrlardagi Buyuk geografik kashfiyotlar davri bilan bog‘liq. Yevropa davlatlari yangi dengiz yo‘llarini izlash va Sharqning Buyuk boyliklariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish maqsadida uzoq hududlarga ekspeditsiyalar uyushtira boshladilar. Dastlab Portugaliya va Ispaniya bu jarayonda yetakchilik qilgan bo‘lsa, XVI asr oxiri va XVII asr boshlariga kelib Buyuk Britaniya ham faol ravishda mustamlakachilik siyosatini olib bora boshladi. 1600-yilda tashkil etilgan Ost-Indiya kompaniyasi Britaniyaning Sharq mamlakatlariga kirib borishida muhim vosita bo‘ldi. Kompaniya dastlab savdo faoliyati bilan shug‘ullangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan harbiy va siyosiy kuchga ega bo‘lib, Hindiston hududlarida o‘z ta‘sirini kengaytirdi.

XIX asrning ikkinchi choragidan boshlab Angliya Yer sharining barcha qit‘alari va barcha dengizlarida faol bosqinchilik siyosatini olib bordi. Hindistonda o‘zining mustamlakachilik faoliyatini kengaytirib, 1843 yili Sind vodiysini, 1846 yili Kashmirni bosib oldi. Shu yillari ingliz mustamlakachilari Afg‘onistonga qarshi bosqinchilik urushini olib bordilar, ammo afg‘on xalqining mardonavor qarshiligiga uchrab, 1842 yili Afg‘oniston amiri bilan sulh tuzishga va vaqtincha bu mamlakatni bosib olishdan voz kechishga majbur bo‘ldilar. Xitoyda birinchi afyun urushlari (1839–1842) natijasida inglizlar Gonkongni bosib oldilar va Xitoydagi Sin hukumatini chet el, avvalo Angliya savdosi uchun (jumladan, afyun olib kirish uchun) qator portlarni ochishga majbur qildi. Dunyoning boshqa joylarida ham Angliyaga qarashli hududlar kengayib bordi. 1840 yili Yangi Zelandiyaning kichik qismi, 1842 yili Borneo orolining shimoliy qismi, 1843 yili Janubiy Afrikadagi bir qator hududlar bosib olindi. XIX asr o‘rtalariga kelib Angliya dunyoning eng katta mustamlakachi imperiyasiga aylandi. Uning mustamlakalari hududi 2 mln kv km dan oshdi, aholisi esa 100 mln kishini tashkil qilardi.

Shu bilan birga, mustamlaka hududlarda inglizlar tomonidan temir yo‘llar, portlar va ma‘muriy tizimlar qurildi, bu esa keyinchalik ayrim davlatlarning infratuzilmasi rivojlanishiga zamin yaratdi. Biroq bu o‘zgarishlar asosan Britaniya manfaatlariga xizmat qilgan bo‘lib, mahalliy aholining siyosiy huquqlari cheklangan va iqtisodiy tengsizlik kuchaygan. Mustamlakachilik siyosati Britaniya iqtisodiyotining rivojlanishiga xizmat qilgan bo‘lsa-da, mustamlaka xalqlari uchun og‘ir oqibatlariga olib keldi. Mahalliy aholi iqtisodiy ekspluatatsiyaga uchradi, tabiiy boyliklar metropoliyaga olib ketildi va ko‘plab hududlarda milliy mustaqillik cheklab qo‘yildi. Natijada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mustamlakalarda milliy ozodlik harakatlari kuchayib, keyinchalik Britaniya imperiyasining parchalanishiga zamin yaratdi.

Britaniya imperiyasi tarkibidagi mustamlakalarni uch turga ajratish mumkin. Birinchisi tip mustamlakalarga Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya kiradi. Bularning aholisi asosan Angliyadan ko‘chib kelganlardan iborat. Dastlab bu yerlar boshqa mustamlakalarga nisbatan ancha qulay sharoitda bo‘lib, boshqalardan oldin avval ma‘muriy, keyin esa siyosiy avtonomiya rejimi o‘rnatildi. Bu tipdagi mustamlakalar ichida Kanada birinchi bo‘lib o‘zini o‘zi boshqarish huquqini oldi. Ikkinchi tip mustamlakalar ichida Hindiston o‘zining qadimiy madaniyati, dini, urf-odatlarini va ko‘p millionli xalqi bilan

ajralib tursa-da, uning holati boshqacha edi. Bu yerda Ost-Indiya kompaniyasi to‘la hokimiyatga ega bo‘lib, undan mamlakatni, hind xalqini talashda keng foydalanildi. 1857 yildagi sipohilar qo‘zg‘oloni va hind xalqining mardonavor kurashi natijasida Angliya hukumati Hindistonni boshqarish tizimini o‘zgartirishga majbur bo‘ldi. Ost-Indiya kompaniyasi tugatildi. Hindistondagi ma‘muriyatning yagona boshlig‘i Hindiston ishlari bo‘yicha vazirlik tomonidan tayinlanadigan general-gubernator deb e‘lon qilindi. Aslida deyarli hech narsa o‘zgarmadi. Aksincha, Angliya qirolichasi Viktoriya “Hindiston imperatori” deb e‘lon qilinishi (1877) qadimiy hind xalqi uchun haqoratli bo‘ldi.

Janubiy Afrikadagi ingliz mustamlakalari ham o‘ziga xos ravishda rivojlanardi. Inglizlar XIX asr boshlarida fransuzlar bilan urush jarayonida bu yerlardagi Gollandiyaga qarashli hududlarni egallagan edi. O‘sha paytdagi nomi “Ezgu Umid burni” bo‘lgan bu mustamlaka o‘zlarini burlar deb atovchi (bur — gollandcha “dehqon” degani) gollandiyaliklar tomonidan o‘zlashtirilgan edi. Burlar mahalliy qora tanli aholining yerlarini zabt etib, o‘zlarini qullarga aylantirishgan va asosan chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi fermalarda ishlashga majbur qilishgan edi.

Ular 1836 yili yoppasiga shimolga, O‘ranj daryosi ortiga ko‘chib o‘tib, u yerda O‘ranj Respublikasini, keyin esa Vaal daryosidan o‘tib, Transvaal Respublikasini tashkil qildilar. 1838 yil 16 dekabrda burlar mahalliy zulu qabilasini qirg‘in qildi (“Qonli daryo ortidagi jang” deb nomlanadi tarixda). Burlarning ko‘chishidan inglizlar yangi yerlarni egallashda foydalandilar. Ular Hind okeani qirg‘oqlarida burlar tomonidan tuzilgan Natal Respublikasini 1843 yili anneksiya qildi. O‘ranj Respublikasi burlari jiddiy qarshilik ko‘rsatganliklari tufayli 1852 yili Angliya uning mustaqilligini tan olishga majbur bo‘ldi. Angliya mustamlakalarining uchinchi tipiga Irlandiya kiradi. XII asrda zabt etilgan va Kromvel qo‘shinlari tomonidan ikkinchi bor zabt etilishi jarayonida ommaviy qirg‘inning dahshatlarini boshdan kechirgan bu mamlakat 1800 yildan buyon “Buyuk Britaniya va Irlandiya Birlashgan Qirolligi”ning ajralmas qismi hisoblanadi.

Buyuk Britaniyaning mustamlakachilik siyosati jahon tarixida keng ko‘lamli imperiya barpo etilishi bilan birga, bosib olingan hududlar uchun jiddiy salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqardi. Avvalo, iqtisodiy sohada mustamlakalar metropoliyaning xomashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozori sifatida xizmat qildi. Natijada Hindiston, Afrika va boshqa hududlarning tabiiy resurslari Britaniyaga olib ketilib, mahalliy iqtisodiyot bir tomonlama rivojlanishga majbur bo‘ldi. Ikkinchidan, Britaniya sanoat mahsulotlarining keng kirib kelishi mahalliy hunarmandchilik va an‘anaviy ishlab chiqarish tarmoqlarining zaiflashishiga olib keldi. Ayniqsa Hindistonda to‘qimachilik kabi muhim sohalar inqirozga uchrab, ko‘plab aholi ishsiz qoldi. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatning buzilishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, mustamlaka hududlar siyosiy jihatdan to‘liq qaram holatga tushdi. Barcha muhim qarorlar metropoliyada qabul qilinib, mahalliy boshqaruv tizimlari cheklab qo‘yildi yoki tugatildi. Bu esa mahalliy xalqlarning siyosiy mustaqilligini yo‘qotishiga olib keldi. Mustamlakachilik siyosatining yana bir salbiy jihati ijtimoiy tengsizlik va irqiy kamsitishning kuchayishidir. Britaniya hukmronligi davrida yevropaliklar ustun mavqega ega bo‘lib, mahalliy aholi ko‘pincha past darajadagi fuqarolar sifatida qaralgan. Bu holat

jamiyatda keskin ijtimoiy tafovutlarni yuzaga keltirdi. Buyuk Britaniya mustamlakachilik siyosatining yana bir muhim salbiy jihati demografik va ijtimoiy muammolarning kuchayishidir. Mustamlaka hududlarda soliq tizimi va iqtisodiy siyosat aholi turmush darajasining pasayishiga olib kelib, qashshoqlik kengaygan. Natijada ocharchiliklar va kasalliklar tarqalishi kuchaygan. Bundan tashqari, mustamlakachilik ta'lim va madaniyat sohasiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Britaniya ma'muriyati o'z boshqaruvini osonlashtirish maqsadida ingliz tilini va G'arb ta'lim tizimini joriy etgan bo'lsa-da, bu jarayon mahalliy tillar va an'anaviy ta'lim tizimining susayishiga olib kelgan. Shu orqali madaniy o'zlikka bosim kuchaygan. Shuningdek, mustamlaka hududlarda siyosiy qarshilik va nizolar ham ortgan. Mahalliy aholi mustamlakachilik tizimiga qarshi bir necha bor qo'zg'olonlar ko'targan, biroq ular ko'pincha kuch bilan bostirilgan. Bu esa zo'ravonlik va beqarorlikning uzoq yillar davom etishiga sabab bo'lgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Buyuk Britaniyaning mustamlakachilik siyosati jahon tarixida eng keng hududlarni qamrab olgan imperiya tizimlaridan biri sifatida muhim o'rin tutadi. Ushbu siyosat imperiya iqtisodiyotini mustahkamlash, sanoat rivoji uchun xomashyo va yangi bozorlar topish maqsadida amalga oshirilgan bo'lsa-da, uning oqibatlari mustamlaka hududlar uchun juda og'ir bo'lgan. Mustamlakachilik natijasida bosib olingan mamlakatlar iqtisodiy jihatdan metropoliyaga qaram bo'lib qoldi, mahalliy ishlab chiqarish zaiflashdi, siyosiy mustaqillik yo'qoldi va ijtimoiy tengsizlik kuchaydi. Bundan tashqari, madaniy bosim va an'anaviy qadriyatlarning susayishi ham kuzatildi. Shu bilan birga, mustamlaka xalqlarning ozodlik va mustaqillik uchun kurashi kuchayib, XX asr davomida Britaniya imperiyasining parchalanishiga olib keldi. Shuningdek, Buyuk Britaniya mustamlakachilik siyosati bir tomondan imperiya qudratini oshirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ko'plab xalqlar uchun uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqargan murakkab tarixiy jarayon sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shuhrat Ergashev Jahon tarixi yangi davr 1800-1918-yillar. Toshkent “O'zbekiston” 2015
2. Cain P. J., Hopkins A. G. British Imperialism: Innovation and Expansion 1688–1914. – London: Longman, 1993.
3. Marshall P. J. (ed.). The Oxford History of the British Empire. – Oxford: Oxford University Press, 1998–1999.
4. Lloyd T. O. The British Empire 1558–1995. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
5. Ferguson N. Empire: How Britain Made the Modern World. – London: Penguin Books, 2003.
6. Darwin J. Unfinished Empire: The Global Expansion of Britain. – London: Allen Lane, 2012.
7. Hobson J. A. Imperialism: A Study. – London: James Nisbet & Co., 1902.
8. Porter B. The Lion's Share: A Short History of British Imperialism. – London: Longman, 1975.